

## TARBIYA DARSLARIDA TAFAKKURNI RIVOJLANTIRUVCHI IQ TEST TOPSHIRIQLARIDAN FOYDALANISH

*Ziyomiddinova Nilufar Avazbekovna*

*Namangan davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi*

*nilufarziyomiddinova83@gmail.com*

*Tel: 998-94-590-83-80*

**Annotatsiya:** Maqolada Tarbiya darslarida o'quvchilarning intellektual salohiyatini oshirish, mantiqiy fikrlash jarayonlarini rivojlantirish hamda tafakkurni rivojlantiruvchi IQ test topshiriqlaridan foydalanishning samaradorligi yoritilgan. Tadqiqotda boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun moslashtirilgan mantiqiy, analitik, verbal va vizual-mavhum fikrlashni faollashtiruvchi IQ testlarining didaktik imkoniyatlari asoslab berilgan. Shuningdek, mazkur topshiriqlarning tarbiya darslarida qo'llanishi o'quvchilarning o'z fikrini asoslash, muqobil yechimlar topish, vaziyatlarni tahlil qilish va qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirishga ijobiy ta'siri ilmiy dalillar asosida ko'rsatib berilgan.

Tadqiqot natijalari IQ testlarining tarbiya jarayonida nafaqat bilish faoliyatini kuchaytirishi, balki o'quvchilarda mas'uliyat, aniqlik, mantiqiy izchillik, mustaqil fikrlash, refleksiv yondashuv kabi fazilatlarni shakllantirishda muhim o'rin tutishini tasdiqladi. Maqolada IQ topshiriqlarini tarbiya darslarining mavzulari bilan integratsiya qilishning metodik yondashuvlari, o'qituvchi uchun amaliy tavsiyalar, shuningdek, o'quvchilarning yosh imkoniyatlariga moslashtirish me'zonlari batafsil yoritilgan.

Olingan ilmiy natijalar Tarbiya darslarini zamonaviylashtirish, dars jarayonini faollashtirish, o'quvchi shaxsining intellektual va ma'naviy rivojiga xizmat qiladigan innovatsion metodlardan foydalanish jarayonida muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Ushbu ishlanmalar boshlang'ich sinflar uchun mo'ljallangan o'quv-metodik qo'llanmalar, tarbiya darslari va interfaol dars modellarini yaratishda qo'llash uchun ham samaralidir.

**Kalit so'zlar:** IQ testlari, tafakkurni rivojlantirish, Tarbiya darslari, mantiqiy fikrlash, boshlang'ich ta'lim, interfaol topshiriqlar, innovatsion metodlar.

## ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЗАДАНИЙ IQ-ТЕСТА, РАЗВИВАЮЩИХ МЫШЛЕНИЕ, НА УРОКАХ ОБРАЗОВАНИЯ

**Аннотация:** В статье рассматривается эффективность использования заданий IQ-теста, повышающих интеллектуальный потенциал учащихся, развивающих процессы логического мышления и формирующих мышление, на уроках образования. В исследовании обосновываются дидактические возможности IQ-тестов, активизирующих логическое, аналитическое, вербальное и наглядно-абстрактное мышление, адаптированные для учащихся начальной школы. Также на основе научных данных показано положительное влияние использования этих заданий на уроках образования на развитие компетенций учащихся по обоснованию собственного мнения, поиску альтернативных решений, анализу ситуаций и принятию решений.



rivojlantirishdir. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarning tafakkur jarayonlarini erta shakllantirish, ularni mantiqan o'ylashga, vaziyatlarga turlicha yondashishga o'rgatish tarbiyaviy jarayonning ajralmas qismidir. Shu bois Tarbiya darslari nafaqat ma'naviy-axloqiy sifatlarni singdirish, balki intellektual salohiyatni kuchaytirishga xizmat qiladigan innovatsion metodlarni talab etadi.

Zamonaviy pedagogik izlanishlar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning fikrlash jarayonlarini faollashtirishda IQ testlari muhim vosita sifatida katta imkoniyatlarga ega. Mazkur testlar o'quvchining mantiqiy, verbal, fazoviy, matematik va analitik tafakkurini aniqlash va rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lib, ularni Tarbiya darslari mazmuni bilan uyg'unlashtirish o'quvchilarni faol fikrlashga undaydi. IQ testlarining o'quv jarayoniga tatbiq qilinishi o'quvchilarning o'z fikrini asoslash, dalillar keltirish, muammolarni mustaqil hal qilish, vaziyatlarga mos qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar, interfaol metodlar, ijodiy yondashuvlar kirib kelayotgan bir paytda IQ testlaridan foydalanish Tarbiya darslarining samaradorligini oshiruvchi innovatsion yondashuv sifatida qaralmoqda. Biroq amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, ushbu testlarni tarbiyaviy mavzularga integratsiya qilishning metodik asoslari yetarlicha ishlab chiqilmagan, dars jarayonida qo'llash bo'yicha tizimli tavsiyalar shakllanmagan.

Shu nuqtai nazardan, ushbu tadqiqotning dolzarbligi shundaki, unda IQ test topshiriqlaridan foydalanishning tarbiyaviy va intellektual imkoniyatlari, ularning dars jarayoniga ta'siri, o'quvchilarda tafakkur jarayonlarini faollashtirishdagi o'rni ilmiy asosda tahlil qilinadi. Tadqiqot Tarbiya darslarida IQ testlaridan samarali foydalanish metodikasini ishlab chiqish, o'qituvchilar uchun amaliy tavsiyalar berish hamda o'quvchilarning yosh psixologik xususiyatlariga mos yondashuvlarni taklif qilishni nazarda tutadi.

Tadqiqot natijalari o'quvchilarning nafaqat intellektual o'sishiga, balki ma'naviy-axloqiy fazilatlarining mustahkamlanishiga, fikrning izchilligi va mas'uliyat hissining shakllanishiga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

## ADABIYOTLAR TAHLILI

Tafakkur jarayonlarini rivojlantirish, o'quvchilarning intellektual salohiyatini oshirish va ularning bilish faoliyatini faollashtirish masalalari pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari fanlarida keng o'rganilgan. Jahon va mahalliy olimlarning ilmiy ishlari IQ testlarining nazariy asoslari, ularning tuzilishi va qo'llanish mexanizmlarini yoritib beradi.

IQ testlarining nazariy asoslari: IQ testlarini ilmiy jihatdan o'rganish dastlab A. Bine, T. Simon va L. Terman tomonidan ishlab chiqilgan intellekt o'lchovlari bilan bog'liq. Ularning fikricha, IQ testlari insonning bilish salohiyatining turli komponentlarini: mantiqiy fikrlash, umumlashtirish, analogiyalar o'rnatish, verbal va matematik tafakkur, fazoviy idrokni aniqlashga xizmat qiladi. Keyingi tadqiqotlar (R. Kettell, H. Ayzenk, D. Veksler) IQ ko'rsatkichlarining yoshga, psixologik rivojlanish bosqichlariga va ta'lim muhitiga bog'liqligini asoslab beradi.

Tafakkurni rivojlantirishga doir ilmiy qarashlar: V. Vygotskiy, J. Piajening bilish taraqqiyoti nazariyalari boshlang'ich sinf yoshidagi bolalarda tafakkurning bosqichma-bosqich rivojlanishini tushuntirib beradi. Bu nazariyalarda faoliyat va muhitning o'quvchi tafakkuriga ta'siri muhim omil sifatida talqin qilingan. Zamonaviy tadqiqotlarda (Bruner, Sternberg, Gardner) tafakkur ko'p komponentli jarayon sifatida ko'rib, unda mantiqiy, ijodiy, tanqidiy va refleksiv fikrlash turlari alohida ahamiyat kasb etadi.

O'quv jarayonida IQ testlaridan foydalanish bo'yicha manbalar: Pedagogik amaliyotda IQ testlaridan foydalanish masalasi ko'plab xorijiy tadqiqotlarda o'rganilgan bo'lib, ular testlarning ta'lim jarayonini faollashtirishdagi samarasi haqida turli metodik tavsiyalarni taklif qilgan. Masalan, D. Shayer va P. Adey o'quvchilarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish uchun IQ elementlarini o'z ichiga olgan "Kognitiv rivojlanish dasturlari"ni ishlab chiqqan. Shuningdek, zamonaviy ta'lim texnologiyalarida IQ topshiriqlari STEAM, problem-based learning, critical thinking kabi yondashuvlar bilan integratsiya qilinmoqda.

O'zbekistonda tafakkur, mantiqiy fikrlash, intellektual rivojlanish bo'yicha bir qator ilmiy ishlar mavjud. R. Mavlonova, O. Hasanboeva, R. Ishmuhamedov, N. Azizxo'jaevalarning pedagogik innovatsiyalar, interfaol metodlar va o'quvchilar

fikrlashini rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlari IQ testlarining ta'lim jarayonidagi ahamiyatini tushuntirishda metodik asos bo'ladi. Shuningdek, boshlang'ich ta'lim psixologiyasi bo'yicha O. Musurmonova, G. Shodiyeva, M. Raximovlarning ishlari o'quvchi tafakkurining yoshga doir xususiyatlari, bilish jarayonlari va diagnostika metodlarini chuqur o'rganadi.

Tarbiya darslaridagi innovatsion yondashuvlar: Tarbiyaviy jarayonda interfaol o'yinlar, kreativ mashqlar, muammoli vaziyatlar, debatlar va reflektiv topshiriqlar qo'llanilishi haqida ko'plab adabiyotlar mavjud bo'lsa-da, IQ testlaridan bevosita foydalanish bo'yicha tadqiqotlar yetarli darajada emas. Bu esa mavzuning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyatini oshiradi.

IQ testlarining Tarbiya fani mazmuni bilan integratsiya qilinishi bo'yicha mavjud adabiyotlarda fikrlar kam bo'lib, ko'proq umumiy intellekt diagnostikasiga qaratilgan. Mazkur maqola ushbu bo'shliqni to'ldirishga, IQ topshiriqlarining tarbiyaviy maqsadlarga xizmat qilish imkoniyatlarini ilmiy-nazariy jihatdan asoslashga qaratilgan.

### NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

Tadqiqot davomida Tarbiya darslarida IQ test topshiriqlaridan foydalanishning o'quvchi tafakkuri, mantiqiy fikrlashi va dars jarayonidagi faolligiga ta'siri chuqur o'rganildi. Olingan natijalar IQ testlarining tarbiyaviy jarayonga integratsiyasi o'quvchilar intellektual salohiyatining oshishiga sezilarli darajada ta'sir qilishini namoyish etdi.

1. O'quvchilarning intellektual faolligi oshdi: Tajriba sinflarida IQ testlaridan muntazam foydalanish natijasida o'quvchilarning: vaziyatni tahlil qilish, mantiqiy bog'lanishlarni topish, muqobil yechimlarni taklif qilish, tez va to'g'ri fikr bildirish ko'rsatkichlari nazorat sinfiga nisbatan 28–35 foizga ga oshganligi qayd etildi. Bu IQ testlarining dars davomida mantiqiy faollikni kuchaytirishini tasdiqlaydi.

2. O'quvchilarning verbal va vizual tafakkuri rivojlandi: IQ testlari ikki yo'nalishda samarali ta'sir ko'rsatgani aniqlandi:

Verbal tafakkur: hikoyadan xulosa chiqarish, matnni umumlashtirish, axloqiy vaziyatlarga munosabat bildirish kabi ko'nikmalar kuchaydi. O'quvchilarning 70 foizida fikrni izchil ifodalash yaxshilandi.

Vizual-mantiqiy tafakkur: tasvirlar orasidan qonuniyat topish, shakllarni solishtirish, ketma-ketlikni aniqlash qobiliyati oshdi.

Tarbiya darslari mavzularda vizual IQ testlari ayniqsa samarali bo'lib, o'quvchilarni e'tiborli bo'lishga, vaziyatni har tomonlama ko'rib chiqishga undadi.

3. Axloqiy qaror qabul qilish malakasi mustahkamlandi” Tadqiqot jarayonida tayyorlangan maxsus IQ topshiriqlari: “to'g'ri tanlovni topish”, “axloqiy vaziyatdan chiqishning eng maqbul yo'lini aniqlash”, “fikrlar orasidan mantiqan to'g'risini tanlash” kabi mashg'ulotlar orqali o'quvchilar axloqiy qaror qabul qilish jarayonlarini chuqurroq anglay boshladi. Ular boshqalarning fikrini eshitish, tahlil qilish, o'z qarorini asoslashga o'rgandi. Bu Tarbiya darslarining asosiy maqsadlariga mos ravishda o'quvchining ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarini rivojlantirdi.

4. O'quvchilarning mustaqil fikrlash ko'nikmalari kuchaydi: IQ testlari o'quvchilarda quyidagi ko'nikmalarni sezilarli rivojlantirdi: sabab–natija bog'lanishlarini aniqlash, xatoliklarni topish va to'g'rilash, umumlashtirish va tahlil qilish, turli fikrlarni taqqoslash va xulosa chiqarish. Tajriba sinflarida mustaqil xulosa chiqarish darajasi nazorat sinfiga nisbatan 25% ga yuqori bo'lgani qayd etildi.

5. Dars jarayonining metodik samaradorligi oshdi. IQ testlarining tarbiyaviy mavzular bilan integratsiyasi quyidagi didaktik afzalliklarni berdi: darslar mazmunining boyishi, vaqtni samarali taqsimlash, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida interfaol hamkorlik kuchayishi, mavzularning mantiqiy bog'lanishlar orqali mustahkam o'zlashtirilishi. Bu Tarbiya darslarining innovatsion yondashuvlar bilan uyg'unlashgan yangi metodikasini shakllantirishga asos yaratdi.

## XULOSALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Tarbiya darslarida IQ test topshiriqlaridan foydalanish o'quvchilarning intellektual, mantiqiy va axloqiy rivojlanishiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Analitik tahlillar, kuzatuvlar va tajribaviy ishlar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. IQ testlari o'quvchilarning tafakkur rivojiga kuchli ta'sir ko'rsatadi: Tajriba sinflarida IQ topshiriqlaridan muntazam foydalanish natijasida o'quvchilarda mantiqiy fikrlash, tahlil qilish, umumlashtirish, muammoli vaziyatlarga yechim

topish kabi tafakkur jarayonlari sifat jihatidan sezilarli darajada rivojlandi. Bu testlar o'quvchilarni faol fikrlashga undovchi samarali vosita ekanligini tasdiqladi.

2. IQ testlarining tarbiyaviy jarayonga integratsiyasi axloqiy qaror qabul qilish ko'nikmalarini mustahkamlaydi: Test topshiriqlarining tarbiyaviy mazmundagi vaziyatlar bilan uyg'unlashuvi o'quvchilarning to'g'ri tanlov qilish, xatti-harakatlarni baholash, oqibatlarini oldindan ko'ra bilish, ijtimoiy-axloqiy me'yorlarni anglash darajasini oshirdi. Bu o'quvchilarning ijtimoiy-emotsional rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

3. Darsning motivatsion jihati kuchaydi: IQ testlari o'yin elementlari, tez fikrlashni talab etishi, noodatiy vaziyatlar orqali o'quvchilarni qiziqtirishi tufayli Tarbiya darslarini yanada mazmunli va interfaol qildi. O'quvchilarda darsga nisbatan ijobiy munosabat, ishtirok etish istagi, faoliyatga immersiya ortdi.

4. O'quvchilarning mustaqil fikrlashi va reflektiv mulohazalari rivojlandi: IQ testlaridan foydalangan darslarda o'quvchilar o'z fikrini mustaqil asoslashga, tanlovlar orasidan eng maqbulini topishga, xatoliklarni anglashga va o'zlashtirish jarayonini tahlil qilishga o'rgandi. Bu ularning kognitiv faolligini oshirdi.

5. IQ testlari tarbiya darslarining metodikasini boyitadi: IQ topshiriqlarining mavzu bilan integratsiyasi darsda muammoli vaziyatlar yaratish, turli fikrlarni taqqoslash, mantiqiy bog'lanishlarni izlash kabi ko'nikmalarni rivojlantirishga imkon berdi. Bu tarbiya darslarini an'anaviy usullarga nisbatan samaraliroq tashkil etishga yordam berdi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullayeva, Q. *Boshlang'ich ta'lim metodikasi*. - Toshkent: O'qituvchi, 2019.
2. Hasanboeva, O., Yo'ldosheva, S. *Pedagogika nazariyasi va tarixi*. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
3. To'xtasinov, S. *Interfaol o'yinlar orqali tafakkurni rivojlantirish metodikasi*. - Samarqand: SamDU nashriyoti, 2021.
4. Azizxo'jayeva, N. *Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat*. - Toshkent: O'zbekiston faylasuflari jamiyati, 2018.
5. Ziyayeva, G. *Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tafakkurni rivojlantirish metodlari*. - Toshkent: Fan, 2022.
6. Salomova, M. *Tarbiya fanini o'qitishda didaktik o'yinlardan foydalanish*. - Samarqand: 2020.

7. Vygotsky, L.S. *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. - Cambridge: Harvard University Press, 1978.
8. Piaget, J. *The Psychology of the Child*. - New York: Basic Books, 1972.
9. Bruner, J. *The Process of Education*. - Cambridge: Harvard University Press, 1960.
10. Davletshin, M. *O'quvchilarning psixologik rivojlanishi*. - Toshkent: Universitet, 2007.
11. Turdiyev, A. *Tarbiyada interfaol metodlardan foydalanishning nazariy asoslari*. - Toshkent: TDPU, 2019.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son qarori "Ta'lim sifatini oshirish strategiyasi".
13. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. *Boshlang'ich ta'lim standartlari*. - Toshkent, 2021.
14. UNESCO. *Active Learning and Teaching in Primary Education*. - Paris, 2017.